



## FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 7-avgust

181-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

### O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagagi 420-sonli qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 18-iyul kungi 356-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta'minlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagи “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-124-sон Farmoni hamda Farg'ona viloyat hokimining 2025-yil 18-iyul kungi “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagagi 420-sonli qarori ijrosini ta'minlash haqida”gi 356-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

#### QAROR QILAMAN

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagagi “2025-yilda davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarini ijtimoiy sheriklik asosida jalb qilish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 420-son qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 18-iyul kungi 356-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan “2025-yilda davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarini ijtimoiy sheriklik asosida jalb qilish dasturi” (keyingi o'rnlarda - Dastur) tasdiqlanganligi;

davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida ustuvor ravishda inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ta'lim, tibbiyat, ekologiya, qurilish, transport, kommunal xo'jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va boshqa sohalarning eng dolzarb muammolari yechimiga qaratilgan ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yish;

tegishli soha va tarmoqlarda mavjud muammolarning ta'sirchan yechimini nazarda tutuvchi tashabbusli loyihalarni amalga oshirish, jamiyat hayotining eng dolzarb sohalarida jamoatchilik nazoratini o'rnatish belgilanganligi inobatga olinsin.

**3.** Tuman hokimining birinchi va tarmoqlar bo‘yicha o‘rnbosarlari (O.Abduraximov, I.Toshpo‘latov, M.Qodirxonov, A.Akbarov, K.Jo‘rayev, X.Abdug‘aniyeva) turli sohalarda faoliyat yuritayotgan fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida mavjud muammolarni hal etishga ko‘maklashish maqsadida, fuqarolik jamiyati institutlari uchun joylarda sayyor qabullar tashkil etish va mavjud muammolarini hal etishga ko‘maklashish;

aholini jamiyat manfaatlariga daxldor masalalar yuzasidan xabardorligini oshirish maqsadida tashkilot va korxonalar tomonidan o‘z faoliyatiga ta’luqli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yoki fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga daxldor bo‘lgan masalalar yuzasidan jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish choralarini ko‘rsin.

**4.** Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rnbosari I.Toshpo‘latov zimmasiga yuklatilsin.

**Farg‘ona tuman hokimi**



**Inomov X.T**